

20-Yanvar, 2026-yil

**O‘ZBEK VA TURK TILLARIDA “ANOR” MEVASINING RAMZIY
XUSUSIYATLARI SEMANTIK TAHLILI**

Hojiyeva Nigina Hayotovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi,

filologiya fanlari doktori (PhD)

sh.g.hojiyeva@buxdpi.uz

Mutalibova Saodat O‘lmas qizi

Bux.DPI magistranti

saodatmutalibova9@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek va turk tillarida anor mevasining lingvistik xususiyatlari hamda semantik qirralari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida anor nomining etimologiyasi, leksik-semantik maydondagi o‘rni, frazeologik birikmalar va badiiy matnlardagi ramziy ma’nolari o‘rganiladi. Har ikki tilda anor mevasining baraka, serfarzandlik, birlik, hayotiylik va muqaddaslik timsoli sifatida qo‘llanishi folklor, maqol va matal hamda adabiy manbalar asosida tahlil etiladi. Shuningdek, o‘zbek va turk xalqlarining madaniy tafakkurida anor obrazining umumiy va farqli jihatlari lingvokulturologik nuqtayi nazardan yoritiladi. Tadqiqot natijalari turkiy tillarda meva nomlarining semantik yukini o‘rganishda hamda qiyosiy tilshunoslik izlanishlari uchun muhim ilmiy xulosalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *til, anor, xalq qo‘shiqlari, madaniyat, turk tili, tilshunoslik, ramz.*

Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, leksik birliklarning nafaqat nominativ, balki ramziy va madaniy-semantik qatlamlarini tadqiq etish lingvokulturologiya va qiyosiy tilshunoslik doirasida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan meva nomlari, ayniqsa qadimdan xalq ongida muayyan tushunchalar, e‘tiqodlar va qadriyatlar bilan bog‘langan anor mevasi til va madaniyat uyg‘unligining yorqin namunasi sanaladi. Anor o‘zbek va turk xalqlari madaniyatida baraka, birlik, serfarzandlik, hayot davomiyligi va muqaddaslik timsoli sifatida qadimdan keng e‘tirof etilgan. Bu mevaning mazkur xalqlarning folklorida, badiiy adabiyotida, maqol va matallarida hamda kundalik nutqida faol qo‘llanishi uning semantik imkoniyatlari nihoyatda boy ekanidan dalolat beradi. Shu bilan birga, o‘zbek va turk tillarida anor nomining qo‘llanish doirasi, ma’no nozikliklari va ramziy talqinlarida muayyan umumiyliklar bilan bir qatorda, milliy tafakkurga xos farqli jihatlar ham mavjud.

Mazkur maqolada anor mevasining o‘zbek va turk tillaridagi lingvistik xususiyatlari hamda semantik yuklamasi qiyosiy tahlil asosida o‘rganilib, uning leksik-semantik maydondagi o‘rni, ramziy ma’nolari va lingvokulturologik ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari turkiy tillar doirasida meva nomlarining semantik tabiatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

20-Yanvar, 2026-yil

O‘zbek va turk tillarida anor nomi umumiy sharqiy-madaniy manbaga ega bo‘lib, forsha “anār” so‘zidan o‘zlashgan. Bu holat ikki tilning tarixiy-madaniy aloqalari bilan bog‘liq.

O‘zbek tilida ushbu meva “anor” deb ataladi. Ushbu mevaga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izoh berilgan: ANOR 1. Anordoshlarga mansub, kichikroq daraxt yoki buta shaklidagi subtropik o‘simlik. ..har joy-har joyda ko‘milgan anor tuplari do‘mbayib yotibdi. S.Zunnunova, Olov.

2. Shu daraxtning ichi qizil donalar bilan liq to‘la yumaloq mevasi. Achchiq anor. Chuchuk anor. Anor suvi. Uchinchi kuni Hafiza olma, asal... anorlar bilan to‘la setkani... bir qizdan Umidga kiritib yubordi. Mirmuhsin, Umid.

3 Anor (erkaklar va xotin-qizlar ismi).

Turk tilida bu meva “nar” deb ataladi. “Turk tilining izohli lug‘ati” ya’ni “Türk Dil Kurumu Türkçe Sözlük” da esa anorga shunday ta’rif berilgan: 1. İsim, bitki bilimi Nargillerden, yaprakları karşılıklı, çiçekleri büyük, koyu kırmızı renkte, küçük bir ağaç (Punica granatum).

2. İsim Bu ağacın kırmızımtırak sarı sert bir kabukla örtülü, içinde çok sayıda kırmızımtırak, sulu taneler bulunduran yuvarlak yemişi. Ya’ni,

1-nomi anordoshlar oilasiga mansub, kichik daraxt (Punica granatum), barglari qarama-qarshi, gullari katta, to‘q qizil rangda.

2-nomi bu daraxtning dumaloq mevasi bo‘lib, qizil-sariq rangli qattiq po‘stlog‘i bilan qoplangan bo‘lib, unda ko‘p miqdordagi qizg‘ish, suvli donalar mavjud.

Turk tilida so‘z fonetik jihatdan qisqargan shaklda qo‘llanadi: Nar-taneleri kırmızı, çok çekirdekli bir meyve.(Anor-donolari qizil, ko‘p donali meva).

Bu holat o‘zbek tilida so‘zning to‘liq shakli saqlanganini, turk tilida esa fonetik soddalashuv yuz berganini ko‘rsatadi. Anorning semantik maydoni va ramziy ma’nolari. Anor ikki tilda ham oddiy meva nomidan tashqari ramziy-semantik yuk kasb etadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida anor ko‘pincha baraka, serfarzandlik va to‘kinlik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jumladan, maqol, topishmoqlarda ham juda go‘zal ma’no-mazmun kasb etadi. Xalq qo‘shiqlarida esa “anor” mevasi musiqiylikni oshiribgina qolmay, o‘ziga xos serqirra semantik ma’no baxsh etadi.

Sen yurgan ovchi bo‘lsang, yora,
Miltiqlab otib olsang.
Men bog‘da anor bo‘lib,
Yor, anda ne qilg‘aysan?

Bu misol anorning o‘zbek mentalitetida oilaviy baxt va baraka bilan uzviy bog‘langanini, qolaversa, mehr-muhabbat singari ma’nolarni ifodalaydi.

Turk madaniyatida anor ko‘proq birlik, yaxlitlik, go‘zallik, muhabbat va muqaddaslik ramzi sifatida talqin qilinadi:

Narçiçeğim salma sakın
Üzülürüm dayanamam

20-Yanvar, 2026-yil

Sen ellerin alma sakın

Üzülürüm dayanamam

Sen ellerin alma sakın

Üzülürüm dayanamam .

Tarjimasi: Anorgulim,, so'nma, so'nma,

Xafa bo'laman, turolmayman.

Sen qo'llaringni olma sokin

Xafa bo'laman, turolmayman

Sen qo'llaringni olma sokin

Xafa bo'laman, turolmayman

Bu misol turk tilida anorning mehr-muhabbat singari semantik qatlamga ega ekanini ko'rsatadi.

Frazeologik birliklarda anor obrazi. Anor (o'zb. anor, turk. nar) Sharq xalqlari madaniyatida qadimdan baraka, serfarzandlik, birlik, yaxlitlik va go'zallik ramzi sifatida talqin qilinib kelgan. Ushbu ramziy ma'nolar til tizimida frazeologik birliklar, poetik iboralar va metaforik ifodalar orqali mustahkamlangan.

O'zbek tilida anor nomi ishtirok etgan frazeologizmlar ko'p emas, ammo poetik-folklor birliklar va ramziy qiyoslar keng uchraydi: 1. Anordek qizarmoq (Yuzning qizarishi, go'zallik, sog'lomlik belgisi). Frazeologik xususiyati tashqi ko'rinishni ifodalovchi qiyosiy birlik ekanligidir. Masalan, Kelinchakning yuzi anordek qizargan edi. (O'zbek xalq og'zaki nutqidan).

2. Anorday (anor kabi) donador. (Juda ser, mo'l, zich joylashgan). Masalan, Anorday donador uzumlar shoxda osilib turardi. (Badiiy tasviriy nutq).

!!!Ushbu birlik ko'proq maqolga yaqin ibora sifatida nutqda uchraydi.

2. Turk tilida anor (nar) ishtirokidagi frazeologik birliklar

Turk tilida nar komponentli iboralar o'zbek tiliga nisbatan faolroq bo'lib, ayniqsa baraka va ko'plik ma'nosini ifodalashda qo'llaniladi.

2.1. Nar gibi kizarmak (Anordek qizarib ketmoq -uyalish, sovuq yoki hissiyot ta'siri). Ko'proq so'zlashuv va badiiy nutqda qo'llaniladi. Masalan, Sözleri duyunca nar gibi kizardı. (Turk og'zaki nutqi).

2.2. Nar tanesi gibi (Juda chiroyli, tiniq, mayda va ko'p (odatda tish, don yoki munchoqqa nisbatan). Masalan, Dişleri nar tanesi gibi dizilmişti. (Badiiy matnlardan).

XULOSA

O'tkazilgan qiyosiy-semantik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, anor mevasining o'zbek va turk tillaridagi lingvistik xususiyatlari nafaqat leksik birlik sifatida, balki muhim lingvokulturologik obraz sifatida ham katta ahamiyatga ega. Har ikki tilda anor nomi baraka, seroblik, birlik, hayotiylik va davomiylik kabi ijobiy semantik komponentlar bilan bog'langan bo'lib, bu holat xalqlarning tarixiy tajribasi va madaniy tafakkuri bilan chambarchas aloqador ekanligi aniqlanadi. Tadqiqot davomida anor nomining folklor, badiiy adabiyot, maqol va matallardagi qo'llanishi uning ramziy ma'nolari yanada boyib borishini ko'rsatdi. O'zbek tilida anor ko'proq oilaviy baraka va serfarzandlik timsoli

20-Yanvar, 2026-yil

sifatida talqin etilsa, turk tilida esa birlik, jamiyatning yaxlitligi va muqaddaslik g'oyalari bilan uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, har ikki til uchun umumiy bo'lgan semantik qatlamlar turkiy xalqlarning mushtarak madaniy ildizlarga ega ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, anor mevasining semantik tahlili o'zbek va turk tillarida leksik birliklarning madaniy-ma'naviy mazmunini ochib berishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya hamda turkiy tillar semantikasi bo'yicha olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati, 5 jild, O'zFA, Toshkent, 2006.
2. Türk Dil Kurumu Türkçe Sözlük.
3. Ömer Asım Aksoy, Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, Ankara, 1993.
4. Sh. Rahmatullayev, O'zbek tilining frazeologik lug'ati, Toshkent, 1992.
5. www.smule.com.